

ChET TILLARINI O‘QITISHNING SAMARALI METODLARI

Ziyodajon ZARIPOVA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annototsiya. *Ushbu maqolada chet tillari ni oson o‘rganish metodlari, metod tushunchasi va metodika tushunchasi haqidagi olimlarning fikrlari ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *metod, metodika, chet tili.*

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. Bundan asosiy maqsad o‘qitish jarayonida ayniqsa chet tilini o‘rgatishda yuqori samaradorlikka erishishdir. Metod so‘zi yunoncha “metodis” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “o‘rganish” va “o‘rgatish” yo‘li degan ma’noni bildiradi.

Metodika tarixiga oid adabiyotlarni chuqurroq o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ayrim tadkikotchilar metodikani sanat deydilar. Ular odatda Fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, yani “yaxshi” yoki “yomon” metod yo‘q “yaxshi” yoki “yomon” o‘qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti Ye.Ottoning 1924- yilda bayon kilingan fikrlari bilan javob berish mumkin. U jumladan shunday deyli: “Agar kimki metodikani sanat deb xisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo‘llanilishi bilan qorishtirib yuboradi” (Saydaliyev, 2004)

Chet tillarni o‘qitishda metodlarni tadbiq etish uzoq davrlardan boshlangan. Tarixan metodlar to‘rt guruxga birlashtirilib, ularning nomlariga “tarjima”, “to‘g‘ri”, “qiyosiy”, “aralash” deb atash qabul qilingan.

Metodika va texnologiyalar chet tilini o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda chet tilini o‘qitish jarayonida qlaster, aqliy hujum, harakatli o‘yinlar, kommunikativ didaktika va boshka turli metodlardan foydalanilmoqda. Shunga qaramasdan maktablarda chet tilini o‘rgatish havas qiladigan darajada emas. Buning asosiy sababi ko‘pgina o‘qituvchilar qaysi metodni qaysi jarayonda qo‘llash kerakligini yaxshi anglab yetmaganligidadir. Har bir o‘qituvchida eng avvalo til o‘rganishni va o‘rgatishni bilish qobiliyati bo‘lishi lozim.

Biror bir tilni o‘rganish uchun avvalo shu tildagi so‘zlarni o‘rganish kerak. So‘z deganda tovush yoki tovushlardan iborat mano anglatuvchi nutq birligi tushiniladi. Shuni

unitmaslik kerakki, soʻz boyligini oshirib borish har qanday xorijiy til ustida ishlash birinchi navbatda xoxish, iroda, qatʼiyatlikni, muntazam takrorlashni, davomiylilikni talab qiladi. Soʻzlar ustida uzoq va uzliksiz ishlash yaxshi samara beradi. Soʻzlarni yodlashda har doim artiklni koʻplik shakli bilan eslab qolish zarur. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga soʻzlarni turli oʻyinlar orqali oʻrgatish yaxshi samara beradi. Bolalarga soʻz maʼnosini imkoniyatga qarab chizma, rasm yoki surat bilan bogʻlab oʻrgatish kerak. Oʻrta yoshdagi bolalarda esa sal boshqacharoq usul qoʻllash kerak. Ularga biror bir soʻzni oʻrgatganda shu soʻz bilan jumla tuzib gapda qoʻllashni oʻrgatish lozim. Masalan: Buch, das Buch, die Bücher, ein Buch lesen, Ich lese ein Buch, Mein Bruder liest viele Bücher. Bu mashq orqali oʻquvchilarda gapirish kúikmasi ham yaxshi rivojlanadi. Soʻzlarni yod olish uchun turli varaqlardan ham foydalanish tavfsiya qilinadi. Agar imkoniyat boʻlsa, narsa va hodisalar nomlari kichik varaqlarga yozish va ularni shu predmetlarga yopishtirib qoʻyish mumkin. Masalan: eshikka –die Tür, derazaga -das Fenster va hakazo. Soʻz va iboralar yozilgan varaqni xonaning turli joylariga ilib qoyish tavfsiya etiladi. Oshxonaga ovqat tayyorlashga oid bolgan quyidagi soʻzlarni – kochen, backen, braten, souer, mild, Teekassel, Pfanne ilib qoʻyish va takrorlash samarali boʻladi. Bunday usul kishini doimo fikran ushbu mavzu bilan mashgul boʻlishiga imkoniyat yaratadi. Soʻz yodlaganda uning talaffuziga ham etibor berishimiz lozim. Tilning talaffuz normalarini egallash nutq faoliyatining asosini tashkil qiladi. Agar gapiruvchi fonetik normalarga amal qilmasa tinglovchi uni yomon tushinadi yoki mutlaqo tushunmaydi chet tilidagi tovushlarni tez va oson oʻrganish uchun avvalo oʻz ona tilisidagi tovushlar tizimini yaxshi bilishi kerak. Soʻzlarni túgri talaffuz qilishimiz uchun koʻproq oʻsha tildagi qoʻshiqlarni tinglashimiz kerak. Bu orqali oʻquvchida tinglab tushunish qobiliyati ham shakillanadi.

Til oʻrgatish va gapirishni oʻrgatish tushunchalari bir biridan farq qiladi. Baʼzi oʻquvchilar bir tilni grammatikasi, fonetikasi, tildagi soʻzlarni juda yaxshi bilishi mumkin lekin shu tilda ravon gapirishga qiynaladi. Buning asosiy sababi shu tilda kam muloqot qilganligidir. Hozirgi kundagi muammolardan biri oʻquvchilarnig xato gapirishdan qoʻrqib gapirmaligidadir. Oʻquvchilarda gapirish koʻnikmasini shakillantirish uchun koʻproq gapirishga undovchi rolli úyinlardan foydalanish kerak. Bu metod barcha

o'quvchilarni qamrab oladi. Masalan: Familie mavzusini oladigan bo'lsak, qaysidir o'quvchi bunda ota yana kimdir ona yoki mehmon va hokazo rollarini ijro qilishi mumkin. Ammo bu dars jarayonining bir qismida tashkil qilinishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars jarayonida turli metodlardan foydalanish muhim ammo undan qanday foydalanish undan ham muhim. Dars jarayonida avvalo o'qituvchi o'quvchilarning holatini, ularning kayfiyatini, darsga bo'lgan munosabatini yaxshilab kuzatishi va shunga qarab biror bir metoddan yoki metodlardan foydalanishi tavfsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996
2. Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. М.: Флинта, Наука, 2010.
3. Слышкин Г. Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М.: Издательский центр «Академия», 2000.
4. Худойбергенова З.Н. Таржиманинг лингвомаданий масалалари.-Тошкент, 2016.

BENEFITS AND CHALLENGES IN TBLT IMPLEMENTATION

Shakhnozakhon ESHMANOVA

Teacher of Uzbek State World Languages University

Annotation. The article is devoted to the study of the advantageous and disadvantageous sides of implementing TBA in FLT process. In fact, a whole lot of techniques, methods and approaches have been in vogue in the field of second language teaching but every method and approach has its own advantages and disadvantages, and so is the case with task based learning approach. The research has been done in the area of task-based learning and various techniques are suggested to improve vocabulary, automaticity of learning and ultimately the performance of learners in developing their language abilities.

Key words: task-based language teaching, cognitive competence, language structures, language form, automaticity, experiential learning.